

**“Navoiyuran” davlat korxonasining Komplaens xizmati tomonidan
2025 yilning 1-yarim yillik davomida amalga oshirilgan
ishlar to‘g‘risida
HISOBOT**

“Navoiyuran” DK tomonidan 2025 yilning 1-yarim yilligi davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturida belgilangan vazifalar doirasida tegishli tadbirlar amalga oshirildi.

Korxonaning Komplaens xizmatiga 3 nafar xodim ishgaga olindi, ishga qabul qilish jarayonini shaffof va ochiq bo‘lishi hamda sinov tadbirlari internet tarmog‘i orqali real vaqt tizimida kuzatish tartibi ta’minlandi.

1-yarim yilligi davomida ishgaga qabul qilingan barcha xodimlar mehnat shartnomalari tuzish jarayonida korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishi bo‘yicha asosiy ichki me’yoriy hujjatlar bilan tanishtirildi, shuningdek, shartnoma shartlarida korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishidagi shartlar kiritildi.

Korrupsiyaviy holatlarni oldini olish, korxona xodimlarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish maqsadida korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida 6 ta o‘quv seminar tadbiri o‘tkazildi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishidagi ma’lumotlar ommaviy axborot vositalarida, korxonaning rasmiy veb-saytida va ijtimoy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida yoritildi.

Korxona boshqaruvin xodimlari va nomzodlar tomonidan taqdim etilgan 830 ta ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalar komplaens xizmati tomonidan tahlil etilib, aniqlangan 26 ta ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi holatlari yuzasidan korxonaning odob-ahloq komissiyasiga taklif kiritildi.

“Navoiyuran” davlat korxonasida korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati va mavjud xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha belgilangan chora-tadbirlar rejasiga tasdiqlandi.

Korxona xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari yuzasidan 2 ta xizmat tekshiruvlari o‘tkazildi.

Bosh direktor tomonidan barcha ishchi xodimlarni qonunlarga rioya etishi, qonun buzilishi holatiga yo‘l qo‘ygan taqdirda qatiy chora qo‘llanishi bo‘yicha yozma ravishda ogohlantirildi.

Korxonaning ichki rasmiy kanali orqali ham ishchi xodimlarni korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashishga jalgan etish bo‘yicha e’lon tarqatildi.

Xalqaro sanksiyalar ta’siri doirasiga tushish xavfini bartaraf etish maqsadida Iqtisodiyot va moliya vazirligiga tuzilayotgan elektron shartnomalarga taraflarning biri sanksiyalar ta’siriga tushgan taqdirda ikkinchi tarafga xabardor etish yuzasidan band kiritish taklifi kiritildi.

Davlat xaridlari sohasida o‘tkaziladigan tender (tanlov) xaridlari elektron davlat xaridlari platformalarida o‘tkazilib, tender (tanlov) natijalari mazkur platformalarda ochiq e’lon qilinmoqda.

“Navoiyuran” davlat korxonasida kontragentlarni tekshirishga oid yo‘riqnomaga asosan 90 ta kontragentlarni tekshirish haqida hisobot tuzildi, kontragentlarni tekshirish natijalari bo‘yicha 879 ta xulosalar (cheklist) berildi.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida” va “Raqobat to‘g‘risida”gi qonunlari mazmun-mohiyatini xodimlarga yetkazish, davlat

xaridlarida yo‘l qo‘yilishi mumkun bo‘lgan xatoliklarni oldini olish maqsadida Navoiy viloyat ixtisoslashtirilgan prokuraturasi, Karmana tumanlararo iqtisodiy sudi, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi Navoiy viloyat hududiy boshqarmasi va Navoiy viloyat G‘aznachilik xizmati boshqarmasi xodimlari ishtirokida seminar-trening o‘tkazildi.

Korxonaning 13 yanvardagi 13-son buyrug‘i bilan ISO 37001:2016 va ISO 37301:2021 xalqaro standart talablari asosida ishlab chiqilgan:

- Komplaens menedjment siyosati;
- 2025 yilda “Navoiyuran” davlat korxonasida korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens menejment sohasidagi maqsadlar;
- Kontekst, qiziqqan tomonlar talablari, xavf va imkoniyatlar;
- Korxonasida korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens menedjment sohasida ichki auditni amalga oshirish tartibi;
- Korxonaning 2025 yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dastur hujjatlari tasdiqlandi.

Korxonada ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi” va ISO 37301:2021 “Komplaens menejment” xalqaro standartlari joriy etildi.

Korxonada aniqlangan korrupsiya holatlari haqida xabar berish uchun ishonch telefoni, veb sayt, elektron pochta, telegram bot ishga tushirilgan. Mazkur aloqa kanallari orqali korruption holat bo‘yicha murojaat yuborish va aloqa ma’lumotlarini olish imkoniyati yaratilgan bo‘lib, har bir yuborilgan murojaat ro‘yxatga olinishi hamda murojaatchini xabardor qilib turish imkoniyati mavjud.

Komplaens xizmati tomonidan joriy yilning 2-yarmida bajarilishi lozim bo‘lgan ishlarga qo‘sishimcha 18 banddan iborat dastur ishlab chiqildi, dasturdagi talablarni bajarilishi ustidan alohida nazorat o‘rnatalib, amalga oshirilayotgan ishlar bo‘yicha belgilangan muddatlarda axborot berib borilishi ta’milanadi.